

TALABALARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY RUHDA TARBIYALASHDA KITOBXONLIKNING O'RNI.

***NORMO'MINOVA GULHAYO SHAVKAT QIZI**
O'ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI,*

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashda kitobxonlik muhim o'rin tutishi haqida ilmiy farazlar ilgari surilgan. Bugungi kunda talabalarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy va axborot soatlaridan foydalanish yuqori samaradorlikni beradi. Bu maqsadni amalga oshirishda eng avvallo axborot texnologiyalari, innovasion pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish zarur. Ilmiy izlanishda turli mavzudagi kitoblarning tarbiyaviy jihatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: kitob, mutolaa, meros, an'ana, ajdodlar, ma'rifat, ma'naviyat, o'qish, ruhiyat, qadriyat.

Kitob mutoalasi talaba yoshlar dunyoqarashini keng, ma'naviy tafakkurini boy, qilish bilan birga, mulohazali, turli yot: g'oyaviy, mafkuraviy, insonni kamolotiga ta'sir qiluvchi illatlar botqog'iga tushib qolishdan asraydi. Kitobxonlik insonni hayotiy muammolariga yechim topishga, odillik, adolatlilik, beg'rikenglik, insonparvarlik kabi fazilatlarini yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mamlakatimizning barcha ta'lim-tarbiya tizimlarida kitobxonlik, kitob mutoalaasini targ'ib qilish va uning inson kamolotidagi o'rni, ahamiyatini targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda axborot-komunikasiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Buning uchun avvalo milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga bog'liqdir.

Sharqda axloq-odob masalalari borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiyning kitob haqidagi quyidagi fikrlariga bir quloq tutaylik: «Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfat. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu-hunar mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham kitob aql qal'asidir» [5; 39].

Haqiqatan ham, talabalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ilmiy, tarixiy asarlarni o'qish, o'rganish, tahlil etishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish orqali ularda turli yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilinadi. Ilm-fan, jamiyatning yutuqlari, taraqqiyoti kitob bilan yuzaga keladi, kitob yoshlikda eng yaxshi murabbiy, qariganda esa undan yaxshiroq do'st yo'qligi xususidagi fikr va g'oyalarni juda ko'p eshitamiz. Kitobning inson hayoti, kishilik jamiyati ma'naviy taraqqiyotidagi beqiyos o'rni qadimdan ma'lum. U dunyoni tanish, bilim berish bilan birga go'zallikka muhabbat uyg'otish, undan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg'usini rivojlantiradi. Kitob talabada dunyoni anglab olishda ko'mak berish bilan bir qatorda uning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, ijobiy xarakterini tarkib toptiradi, hayot va turmush ziddiyatlarini qanday qilib yechish yo'llarini o'rgatadi. Bu xislatlarni egallab olgan har bir talaba yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib kamolga yetadi.

Zero, kitob avlodlar zanjirini mustahkamlovchi an'anaviy merosdir. U inson ruhiga ta'sir etib, ularni ma'naviy-axloqiy kamolotga yetaklaydi, hissiyotiga ta'sir etadi va bilim berish bilan birga talabaga zavq bag'ishlaydi hamda aqlni charxlab, uni tarbiyalaydi.

O'qituvchi talabalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda, ilmiy-ommabop, badiiy, tarixiy asarlarni o'qish, mutolaa qilishga mehr uyg'otish va kitobxonlik saviyasini o'stirish borasida amal qilishi lozim bo'lgan quyidagi mezonlarni tavsiya qilmoqchimiz:

- talabalar qanday kitoblarni o'qishga qiziqishi va tafakkuri qanday darajada ekanligini aniqlash;
- talabaning tafakkur qilish faoliyatlarini anglashi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga e'tibor qaratishi;
- o'z fikrini ravon, erkin foydalana olish ko'nikmasini shakllantirishi;
- qiziqishiga mos asarlarni o'qib, mazmunini so'rab borish orqali kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilish, shu o'rinda kundalik tutishga o'rgatishi;
- yozma nutq belgilarini talaffuzda ifodalash, matnni ifodali o'qiy olish malakasini rivojlantirishi kabilar.

Talabalarda badiiy asarni o'qish jarayonida bevosita ularda hayajon, rang-barang his-tuyg'ular to'planganini kuzatamiz. Talabalarda ilmiy-ommabop, badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish orqali ularda atrofidagi voqyea-hodisalarga to'g'ri, oqilona munosabat shakllantiriladi, olamni o'rganishlari keskinlashadi.

Ayniqsa, o'smir yoshdagi talabalarda kitob o'qish va mutolaa qilishga qiziqishni shakllantirish muhim hisoblanadi. Chunki bu yoshdagi talabalar o'zlarini juda erkin, tetik seza boshlaydi, atrofidagi voqyea-hodisalarga qiziqishi ortib boradi. Ular ko'proq o'zlari qiziqqan mashg'ulotni kattalardan yashirincha bajarishga harakat qiladi. Yolg'on so'zlash, qilgan aybini yashirish va kattalar oldida o'zini aqliraso qilib ko'rsatishga urinadi. Bu yoshdagi talabalarning bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotgani, nimalar bilan mashg'ul bo'lishini ota-ona, o'qituvchi, murabbiy, mahalla faollari doimo nazoratga olishlari lozim.

Tarbiyaning barcha turlari kabi kitob o'qishga o'rgatish ham bolalikdan boshlanadi. Buning uchun, albatta ota-ona va o'qituvchilarning o'zlari talabalarga namuna bo'la olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar o'zlari o'qigan kitoblarining eng qiziqarli, ta'sirli voqyea-hodisalarini talabaga so'zlab berish orqali

ularni kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Bunday fazilatlarga ega shaxsni ma'naviy tafakkurini tarbiyalash uchun avvalo o'quv tarbiya jarayoni quyidagilarga amal qiladi:

- yoshlar ongiga sharmu-hayo, odob-andisha, ota-onalarga hurmat, kattalarga izzat-ehtirom, kichiklarga shafqat kabi olijanob fazilatlarni shakllantirish;

- shaxsning rivojlanishida o'zaro munosabatlar hamkorligi, buyuk ajdodlarimiz merosiga ulkan g'urur tuyg'ularini singdirish, asrlar osha bizgacha yetib kelgan qadriyatlar va urf-odatlariga beqiyos hurmat ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'z dini va o'zga dinlarga nisbatan bag'rikenglik tamoyillarini singdirish;

- shaxs kamoloti va ma'naviyati ijtimoiy jamiyatdagi muhim omillardan ekanligini anglatish;

- insoniy fazilatlar va g'ayri insoniy qarashlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish;

- insonlarga xos samimiylik, vatanparvarlik, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, fidoiylik kabi fazilatlarning jamiyat taraqqiyotidagi eng asosiy omillardan biri ekanligini anglatish;

- yoshlarda mustaqil, ijodiy fikrlash, axborotlarni saralash, tahlil etish malakasini shakllantirish zarur deb hisoblaymiz.

Shunday ekan, talabalarni kitobxonlikka o'rgatish oiladan boshlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Oilaviy kitobxonlik madaniyatiga erishish – davr talabidir.

O'zi tug'ilib-o'sgan oilaviy muhitida o'z vaqtida kitobga muhabbat, adabiyotga e'tibor bilan ulg'aygan, kitobxonlikni oilaviy muhim qadriyatga aylantirgan bu insonlar bugun farzandlarining ham kitob atalmish buyuk va bebaho xazinadan bahramand bo'lib, ma'naviy barkamollikka erishishini istaydi. Buning uchun, ham ota, ham ona o'z vaqt va imkoniyatiga qarab, sermazmun, badiiy-estetik ahamiyati yuqori turli adabiy janrdagi, jahon va o'zbek adabiyoti durdonalarini, diniy-ma'rifiy sarchashmalarni tanlab xarid qilishadi. Bu asarlarni farzandlarining yosh va qiziqishlari, aqliy salohiyati, o'zlashtirish qobiliyatini e'tiborga olgan holda taqsimlab berishadi. Eng muhimi, kitob taqdim

qilinganda, hajmini ham e'tiborga olgan holda, mutolaa uchun muayyan vaqtlar ajratishadi. Badiiy asar tanlashda farzandining yosh va fiziologik xususiyatlari, ruhiy-ma'naviy dunyosi, qiziqish va intilishlar ko'lamini nazarda tutmas ekan, har qanday kitobsevar ota-ona bu borada ijobiy yutuqlarga erisha olmaydi. Ko'rinadiki, mutolaa madaniyatining ham o'ziga xos me'yor va talablari mavjud.

Shularni e'tiborga olgan holda, quyidagi tavsiyalarni e'tiborga olish nazarda tutiladi:

- kitob mutolasida hamisha farzandlarga o'rnak bo'lish;
- kitob tanlash madaniyatiga ega bo'lish;
- muayyan vaqtlarda oila davrasida navbatma-navbat kitob o'qib berishni yo'lga qo'yish;
- o'qilgan asar mazmun-mohiyati, qahramonlar xarakter-xususiyati, ijodkor yondashuvi, olingan ta'surotlar bo'yicha oilada davra suhbatini tashkil qilib borish;
- o'z vaqtida va talab darajasida mutolaa qilgan kitobxon farzandni alohida rag'batlantirish;
- badiiy adabiyot o'qishga yetarlicha qiziqish bildirmayotgan, topshiriqlarni o'z vaqtida bajara olmayotgan farzand bilan alohida shug'ullanish, unda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish;
- jamiyatning moddiy-ma'naviy taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'shadigan yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli oila sifatida qadr topish.

Alisher Navoiy hazratlari «Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai», deb ta'kidlagan bo'lsa, Sohibqiron bobomiz Amir Temur «Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiydir», deb uqtirgan.

Ma'naviy jasorat sohibi deb ardoqlangan atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov dunyodagi yetti mo'jizaga ta'rif berib, «...yetti mo'jiza inson aqlining, tafakkurining, qalbining otashin madhiyasi, inson dahosining ulug'ligiga qo'yilgan mangu obida bo'lib kelmoqda. Biroq, shunday bo'lsa-da, olamda yana bir

mo'jiza borki, uning buyukligi, muqaddasligi yetti mo'jizaning jamiki ulug'vorligi, go'zalligidan kamlik qilmaydi. Bu mo'jiza-kitob. Kitobning mo'jiza, mo'jiza bo'lganda ham birinchi mo'jiza ekanligini ko'pgina buyuk odamlar qayd qilgan» [3] - deb yozadi.

Kitobxonlik insonning asosiy ehtiyojga aylanmog'i zarur. Ziyo nuriga cho'mgan oilaning farzandlari, shubhasiz, Vatanimiz kelajagi, xalqimiz ishonchi va tayanchidir. Bu – bizning bugungi xulosamiz. Biroq bundan yarim asr oldin oddiygina ishchi bo'lgan otam bepoyon yurtimizning eng chekka go'shasida jinchiroq yorug'ida farzandlariga asriy asotirlaru ardoqli adiblar asarlarini o'qib berganida xayolidan nimalar o'tgan ekan? Ehtimol, kitobning ma'naviyat xazinasi ekanini teran anglagani uchun ham, ishdan horib-tolib kelishiga qaramasdan, kitobxonlikni kanda qilmagandir. Balki zamon to'lqinlarida suzuvchi va o'zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalari bo'lgan kitoblar bir kun kelib farzandlarini kamolot sohiliga yetkazishini orzu qilgandir. Axir farzandlarimizning har tomonlama yetuk va barkamol bo'lishi uchun ota-onalar zimmasida katta mas'uliyat turadi. Shubhasiz, kitob o'qish ma'naviy olamni boyitadi, so'zlashuv madaniyatini oshiradi. Buyuk ajdodlarimizdan qolgan milliy boyligimizni avaylab-asrash, ularni o'rganish va afkor ommaga targ'ib qilish uchun ham kitob o'qish lozim. Har qanday buzg'unchi kuch va xurujni yuksak ma'naviyat bilan yengish mumkin. Shu ma'noda kitobxonlik bugun barchamiz uchun hayotiy zaruratga aylanmog'i kerak. Ushbu masalaga shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan alohida e'tibor qaratilib, bu borada muhim vazifalarning belgilab berilayotganligi aholi o'rtasida yuksak ma'naviy tafakkur va ongni tarbiyalashda, ma'rifatparvarlikni targ'ib qilish yo'lida barchamiz uchun yangi ibrat bosqichini boshlab berdi, deyish mumkin. Bugungi kunda yurtimizda kitobxonlikka, kitob mutolaasiga katta e'tibor berilayotgani - bu kasb egalarini yanada faol ishlashga undamoqda. Chunki hali tafakkur kemasiga chiqmagan, fikrat dengizida suzmagan oddiygina maktab talabasi ta'lim dargohining bir burchagidagi sehrlirli-xonaga yurak yutib kirarkan, kutilmaganda uni mehribon bir inson qarshi olsa, uning yoshi va qiziqishidan kelib chiqib, bir necha kitoblarni taklif qilsa, o'sha kitoblar haqida shu qadar qiziqarli hikoyalar, o'z

ta'surotlarini aytib bersa, har qanday talabanning butun dunyoni unutib mutolaaga berilib ketishi, so'ngra har kuni o'sha nurli maskanga oshiqishi shubhasiz. Zero, kitob irodani toblaydi, boshqaruv mahoratini oshiradi. Bugungi tezkor va zamonaviy sharoitda intellektual salohiyati yuksak kadrlarni tayyorlashda yoshlarning kitobga munosabatini yanada yaxshilash, harbiy qismlarda va huquq-tartibot organlari uchun yetuk kadrlar tayyorlanadigan ta'lim maskanlarida mavjud kutubxonalar fondini eng yangi badiiy, ilmiy, sohaga doir, jumladan, davlat tilidagi kitoblar bilan muntazam ravishda boyitib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Очилов М. Муаллим - қалб меъмори. –Т.: Ўқитувчи,2001.-432 б.
2. Ражабов С. Халқ маорифи ва педагогика фанининг буюк алломалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. -105 б.
3. Рахимов С. Абу Али ибн Сино таълим-тарбия ҳақида. –Т.: Ўқитувчи. 1967. Б-91.
4. Раҳмонов Р., Файзиев Ф. Ёшлар дунёқараши шаклланишида тарихий онг ва тарихий хотира. –Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2008. -69 б.
5. Рўзиева Д.И. Олий таълим муассасалари талабаларида миллий ифтихор туйғусини ривожлантиришнинг илмий педагогик асослари: пед.фан. докт. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2007. -36 б.
6. Темур тузуклари.Б.Аҳмедов таҳрири остида. – Т.:Ўзбекистон, 2011,- 184 б.
7. Тилегенов А.Т. Халқ дostonлари воситасида ўсмирларни маънавий-ахлоқий кадриятлар руҳида тарбиялаш («Алпомиш» дostonи мисолида): Пед.фанл.номз. ... дисс. – Т.: 1998. – 140 б.
8. Тохир Малик . Тилингни авайла. –Т.:- “Давр-пресс” НМУ.2016й. 118б.